

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

---

## BIOLOGIYA

**D.R.Kapizova, I.I.Zokirov**

Mevali bog'lar koksidlari entomofaglarining sistematik tahlili  
(Sharqiy Farg'ona hududi misolida) ..... 101

**R.N.Mo'minova**

Qoradaryo havzasi yuksak suv o'simliklarining bioekologik xususiyatlari ..... 106

**С.Д.Дадаев, Д.А.Палуаниязова**

О фаунистических и экологических особенностях гельминтов мелкого  
рогатого скота Каракалпакстана ..... 110

**S.B.Orifov, F.R.Xolboyev**

Hind chumchug'i- *Passer indicus* ning O'zbekistonda ko'payish xususiyatlari va ahamiyati .... 116

**N.K.Devonova, G.S.Mirzayeva, B.E.Soyibnazarov, Sh.E.Tursunboyeva**

Surxon davlat qo'riqxonasining tangachaqanotli hasharotlari (insecta: lepidoptera) ..... 121

**M.A.Axmadjonova**

Farg'ona vodiysida tarqalgan *Sitona* Germar, 1817 avlodi (Coleoptera: Curculionidae)ga  
mansub turlarning bioekologik xususiyatlari ..... 127

**V.A.Karimov, M.Nazarov**

Jadal texnologiyada arpa yetishtirish ..... 133

---

## GEOGRAFIYA

**Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev**

Aholi zichligini aniqlashda yer sig'imi uslubidan foydalanish ..... 142

**I.O.Sulaymonov**

O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning ayrim jihatlari ..... 146

**Q.S.Yarashev, A.I.Xayitbayev**

Xorazm viloyati voha landshaftlarining shakllanishi va rivojlanishi ..... 150

**I.Aripov, R.Mariya**

Sirdaryo viloyatida sho'rlangan hududlarni melioratsiyalashtirish samaradorligining  
iqtisodiy baholanishi ..... 154

**A.U.Usmonov, A.K.Ergashev**

Shahar aholi manzilgohlari shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari  
(Vobkent tumani misolida) ..... 161

**O.N.Xakimov**

Kollektor geotizimlaridagi relyefning havzaviy strukturasi ..... 166

**O.N.Xakimov**

Yer yuzasini kartografik ideallashtirish va uning relyef strukturasini tadqiq qilishdagi o'rni ..... 178

---

## ILMIY AXBOROT

**Y.E.Altiboyev**

Tarixiy manbalarda keltirilgan Qashqadaryo daryosi to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili ..... 190

**A.A.Akramov**

Oliy ta'lim tizimida ekologik o'quvni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotini  
takomillashtirish modeli ..... 195

**M.J.Urinov**

Kambag'allikning sivilizatsion ko'chish dinamikasi va uning o'ziga xos xususiyatlariga  
falsafiy tavsif ..... 199

**B.F.Abdishukurov**

Markaziy Osiyodagi hududiy-chejaraviy muammolar  
(1924-yildan keyingi voqealar xususida) ..... 203

**A.M.To'rayev**

Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish asosida kasbiy takomillashtirish ..... 207

**Sh.M.Kadirov**

Talabalarda tarixiy vogelikka nisbatan analogik xulosa chiqarish ko'nikmalarini  
rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ..... 210



УО'К: 913.1/913.8

**SHAHAR AHOLO MANZILGOHLARI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY  
ASOSLARI (Vobkent tumani misolida)**

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ПОСЕЛЕНИЙ  
ГОРОДСКОГО ТИПА (на примере Вобкентского района)**

**THEORETICAL PRINCIPLES OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF URBAN  
RESIDENTS (on the example of Vobkent district)**

Usmonov Ahrorbek Uyg'un o'g'li<sup>1</sup> 

<sup>1</sup>Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, tayanch doktorant

Ergashev Anvar Karimovich<sup>2</sup> 

<sup>2</sup>Buxoro davlat pedagogika instituti, o'qituvchi

**Annotatsiya**

So'ngi yillarda O'zbekistonda aholi sonining tezlik bilan o'sib borayotganligi aholi manzilgohlariga bo'lgan talabni ham oshirib bormoqda. Ayniqsa, atrofi cho'l bilan o'ralgan voha qismlarida aholi manzilgohlarini rivojlantirish birmuncha murakkab. Ushbu maqolada Buxoro vohasining Vobkent tumani shahar aholi manzilgohlari geografik tadqiq etilgan. Maqolada hududdagi shahar aholi manzilgohlarining o'ziga xos geografik o'rni, aholisi, shakllanish tarixi, aholi manzilgohlarining to'ri, muammolari va ularni yechimiga doir taklif va tavsiyalar, rivojlanish istiqbollariga doir ba'zi mulohazalar keltirilgan.

**Аннотация**

Стремительно расширяющееся в последние годы население Узбекистана также увеличивает спрос на жилые помещения. Особенно в тех частях оазиса, которые окружены пустыней, развитие населенных пунктов несколько затруднено. В данной статье проведено географическое исследование городских населенных пунктов Вобкентского района Бухарского оазиса. В статье представлены предложения и рекомендации по конкретному географическому положению поселений городского населения на территории, населению, истории формирования, сети населенных пунктов, проблемам и их решению, некоторые соображения по перспективам развития.

**Abstract**

In recent years, the rapid growth of the population in Uzbekistan has increased the demand for residential areas. It is especially difficult to develop settlements in the oases surrounded by desert. In this article, the urban settlements of the Vobkent district of the Bukhara oasis are geographically studied. The article presents the unique geographical location of urban settlements in the region, population, history of formation, network of population settlements, suggestions and recommendations on problems and their solutions, and some comments on development prospects.

**Kalit so'zlar:** aholi manzilgohlari, shaharlar to'ri, voha, arxitektura landshafti, ekologik holat, geoekologik muammolar.

**Ключевые слова:** населенные пункты, сеть городов, оазис, архитектурный ландшафт, экологическая ситуация, геоэкологические проблемы.

**Key words:** human settlements, urban grid, oasis, architectural landscape, ecological status, geoecological problems.

**KIRISH**

Har qanday hudud aholi manzilgohlari tizimida shaharlar o'z o'rni va mavqeiga ega. Garchi mamlakatimizda urbanizatsiya jarayoni nisbatan sust rivojlangan bo'lsada, unda shaharlarni o'rganish ancha ilgarilab ketganligini ko'rish mumkin. Shaharlarning geografiya fanlari tizimida xususan iqtisodiy va ijtimoiy geografik o'rganilishi o'z tarixiga ega.

So'ngi yillarda O'zbekistonda aholi sonining oshishi, ijtimoiy sohalarga, aholi manzilgohlariga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. Shahar aholi manzilgohlari qishloq joylariga nisbatan

demografik sig‘imi yuqori bo‘lib, hududlar ekologik holatiga salbiy ta’sirlar oshib bormoqda. Suv, yer, biologik va iqlimiylar resurslarga nisbatan noto‘g‘ri munosabat kuchayib bormoqda.

O‘rganish obyekti bo‘lgan Buxoro viloyatining Vobkent tumanida ham shahar aholi manzilgohlari rivojlanish istiqbollariga to‘siq bo‘luvchi bir qator geoekologik muammolar mavjud. Bugungi kunda mazkur muammolarni geografik va ekologik jihatdan tahlil qilish dolzarbdir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Shaharlar geografiyasini iqtisodiy va sotsial geografiyaning eng rivojlangan yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu sohadagi ancha mukammalroq tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasida o‘tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Ma’lumki, bu davrda respublikamizning ayrim mintaqalarini majmuali o‘rganishga katta e’tibor qaratilgan. Ana shu tadqiqotlar yo‘nalishlaridan biri shaharlarni o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, bu borada N.V. Smirnovning 1957 yilda nashr etilgan “Farg‘ona vodiysi shaharlari” kitobi respublika shaharlarini o‘rganishdagi dastlabki qadam bo‘ldi [3]. Keyinchalik bu sohada ToshDU (hozirgi O‘zMU) iqtisodiy geografiya kafedrasini olimlari T.I.Raimov, O.B.Otamirzaev, A.S.Soliev kabilarning faoliyati samarali bo‘lgan. Aynan ana shu olimlar O‘zbekistonda ilk bor shaharlar geografiyasiga oid mukammal tadqiqot olib borishgan. Jumladan, Buxoro viloyat shahar aholi manzilgohlarning geografik xususiyatlari va ularning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni A.M.Mavlonov tadqiq etgan. [3]. Shuningdek, aholi manzilgohlarning tiplari [2], shahar aholi manzilgohlari [2,4], qishloq aholi manzilgohlari [5] to‘g‘risida ham ko‘pgina ishlarni amalga oshirilgan.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Ushbu maqolada Vobkent tumani shahar va shaharchalarning geografik o‘rganish obyekti sifatida tadqiq etishda G.M.Lappo, B.S.Urlanis, A.S.Soliyev, O.B.Ata-Mirzayev, E.A.Axmedov, Z.N.Tojiyeva, N.Q.Komilova, A.M.Mavlonov, M.A.Kadirov, O.L.Muhammedov va boshqa mualliflarning shu sohada bajargan ilmiy tadqiqot ishlarni metodologik asos sifatida olingan.

### **UMUMIY GEOGRAFIK TAVSIF**

Vobkent – Buxoro viloyatidagi tuman. 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Vobkent tumani janubida Buxoro tumani, g‘arbda Peshko‘, Romitan tumanlari, shimolda Shofirkon tumani, shimoli-sharqda G‘ijduvon tumani va sharqda Navoiy viloyatining Qiziltepa tumani bilan chegaradosh. Maydoni 0,29 ming km<sup>2</sup>.

Tumanning aholi manzilgohlari to‘ri o‘ziga xos bo‘lib, hududda jami 1 ta shahar 3 ta shaharcha va 186 ta qishloq aholi manzilgohlari joylashgan. Vobkent tumanida 2024-yil 1-yanvar holatida 148,7 ming aholi istiqomat qiladi. Shundan, shahar aholisi 28,8 ming kishi, qishloq aholisi esa 119,9 ming kishi. Urbanizatsiya darajasi ancha past bo‘lib, 19,4 % ni tashkil etadi.

### **NATIJA VA MUHOKAMA**

Vobkent tumanida aholining aksariyat qismi qishloqlarda yashashidan kelib chiqqan holda, aholi manzilgohlari to‘rida asosan qishloq aholi manzilgohlari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Tumanda shahar aholi manzilgohlari to‘ri juda sust shakllangan. Vaholanki, tumanning qulay geografik o‘rnini shaharlar rivojlanishi uchun yetarlicha imkoniyatlar yaratadi.

Tumandagi barcha aholi manzilgohlari yaqin yillarda tashkil etilgan bo‘lib, ularning kattakichikligi, arxitektura landshafti, aholisi, aholining milliy, etnik tarkibi, madaniyatni, ekologik holati va turizm salohiyati turfa xil bo‘lib, asosan, cho‘l zonasini tabiatini o‘zida uyg‘unlashtirgan.

**1-jadval**

#### **Vobkent tuman shahar aholi manzilgohlari to‘ri**

| №           | Shaharlar    | Tashkil topgan yili | Aholisi (ming kishi ) |            |            |            |            |
|-------------|--------------|---------------------|-----------------------|------------|------------|------------|------------|
|             |              |                     | 1990                  | 1995       | 2000       | 2016       | 2024       |
| 1           | Vobkent      | 1981                | 13,0                  | 14,0       | 14,8       | 17,8       | 20,6       |
|             |              |                     |                       |            |            |            |            |
| №           | Shaharchalar | Tashkil topgan yili | Aholisi (ming kishi ) |            |            |            |            |
|             |              |                     | 2009                  | 2013       | 2016       | 2020       | 2024       |
| 1           | Shirin       | 2009                | 2,7                   | 2,8        | 2,9        | 2,9        | 2,9        |
| 2           | Xayrxush     | 2009                | 2,2                   | 2,4        | 2,5        | 2,6        | 2,7        |
| 3           | Kosari       | 2011                | -                     | 2,1        | 2,2        | 2,4        | 2,6        |
| <b>Jami</b> |              |                     | <b>4,9</b>            | <b>7,3</b> | <b>7,6</b> | <b>7,9</b> | <b>8,2</b> |

**GEOGRAFIYA**

Izoh: Jadval Buxoro viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, Vobkent tumanida shahar aholi manzilgohlari to'ri nihoyatda siyrak joylashgan. Aksincha qishloq aholi manzilgohlari esa ancha ko'p. Buning asosiy sabablaridan biri hududdagi aholi punktlari qadimdan Zarafshon daryosining bo'ylab joylashganligi va aholining asosiy faoliyati qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Vobkent tumanida Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 13-martidagi № 86 qarori bilan 2 ta yangi shaharchalar vujudga kelgan bo'lsa, 2011-yilda Kosari tumanning shahar manzilgohlari qatoriga qo'shildi(1-jadvalga qarang).

**Vobkent** (o'g'uz shevasidagi «vob» yoki «vahobkent» - «bo'z, qo'riqdag'i qishloq» ma'nosida) – Buxoro viloyatidagi shahar (1981 yildan). Vobkent tumanining ma'muriy markazi. Vobkent – ko'hna shaharlardan biri. O'rta asrlarda Vobkent atrofida bir necha qishloq-qo'rg'onlar bo'lgan. Vobkentning g'arbida joylashgan Narshax qishlog'i shulardan biri. X asrda yashagan tarixchi olim Narshaxiy shu qishloqda tavallud topgan. Narshax qishlog'i Muqanna qo'zg'oloni markazlaridan biri bo'lgan.

Vobkent XIV asr hujjatlarida o'z qozisiga ega bo'lgan qasaba, ya'ni shahar sifatida Vobkana nomi bilan tilga olinadi. XVI asrdan boshlab Vobkent ikki nom – Vobkana va Komot deb yuritila boshlagan.

Vobkent Buxoroni Samarqand va Toshkent bilan bog'lovchi avtomobil magistral yo'li yoqasida joylashgan. Vobkentning o'tasidan Zarafshon daryosining irmog'i Vobkent daryosi kesib o'tgan. Yaqin temir yo'l stansiyasi – Buxorodan 28 km. Aholisi qariyb 21 ming kishi, asosan o'zbeklar; shuningdek rus, tojik, tatar, ozarbayjon va boshqa millatlar ham yashaydi. Tuman tashkilotlari, paxta punkti, hunarmandchilik va badiiy buyumlar sexi faoliyat ko'rsatadi. Me'moriy yodgorliklardan Vobkent minorasi bor. Vobkentda 1993-yilda 120 o'rinci viloyat sog'lomlashtirish markazi ishga tushirildi.

**Shirin** – Buxoro vohasining markazi qismidagi aholi manzilgohi bo'lib, u Buxoro – Samarqand avtomobil yo'li yaqinida joylashgan. Shaharcha viloyat markazi Buxoro shahridan 26 km, tuman markazi Vobkent shahridan esa 7 km uzoqlikda joylashgan. Shaharcha vohaning markazi qismida, undan janubroqdan Zarafshon daryosining qadimgi o'zani (hozirgi Markaziy Buxoro kollektori) o'tgan. Shaharcha atroflari o'zlashtirilib, ekin maydonlariga aylantirilgan. Shirin ma'muriy jihatdan Yangikent qishloq fuqarolar yig'iniga kiradi. Uning aholisi soni 2,9 ming kishi.

"Shirin" so'zining qanday vujudga kelgani haqida xalq etimologiyasida avliyo tabib Bibishirin nomlariga atab qo'yilgan deb talqin qilinadi, lekin ayrim ilmiy manbalarda ("Vobkent tumani toponimlari", M.T.Mirakmalov, M.M.Avezov, D.Q.Asrarov) "shirin" so'zi o'zbek xalqi tarkibida "shirin" deb ataluvchi urug' nomidan kelib chiqqani haqida aytib o'tilgan. Shuningdek toponimist olim S.Qoraevning "Toponomika" nomli kitoblarida Shirin ko'chmanchi o'zbeklar tarkibidagi qavmlardan biri ekanligi haqida yozib qoldirilgan.

**Kosori** – Buxoro vohasining markazi qismidagi aholi manzilgohi bo'lib, u M37 yo'li yoqasida joylashgan. Shaharcha viloyat markazi Buxoro shahridan 29 km, tuman markazi Vobkent shahridan 3,5 km uzoqlikda joylashgan. Shaharcha Vobkent shahrining janubi-sharqida undan janubroqda Amu-Vobkent mashina kanali o'tgan bo'lib, shaharcha atrofidagi ekin maydonlar aynan shu kanal suvi bilan sug'orilgan. Kosori ma'muriy jihandan Qo'ng'iroq qishloq fuqarolar yig'iniga kiradi. Uning aholi soni 2,6 ming kishi.

Xalq etimologiyasiga ko'ra, shaharchada quduq bo'lgan va yo'lovchilar idishda suv bilan ta'minlangan. Shuning uchun shahar Kosari deb ataladi. Bizningcha, toponim dastlab komisari bo'lgan, keyin esa dialektal talaffuzga o'zgarib, hozirgi holatiga kelgan. Demak, geografik joy nomi kom va sari so'zlar -i bog'lovchisi yordamida birikishidan hosil bo'lgan. Toponimning birinchi komponenti – kom so'zi tojikcha so'z bo'lib, so'zma-so'z "og'iz" ma'nosini bildiradi. Biroq, bu so'z "katta oriq" degan ma'noni ham anglatadi. Akademik V. V. Bartold bu atama haqida fikr yuritar ekan, "kom so'zi umumforsiy jo'y so'zidan kattaroq kanallar ma'nosini bildiradi", deb yozadi. Toponimning ikkinchi komponenti sari so'zi bo'lib, "yuqori taraf", "bosh taraf", "yon taraf" ma'nolarini bildiradi. Demak, Kosari "katta kanal (posyolka) tarafi" degan ma'noni bildiradi. Darhaqiqat, kanal shaharcha joylashgan hududdan oqib o'tadi. Demak, toponimning shakllanishiga uning geografik joylashuvi asos bo'lgan.

## 2-jadval

**Vobkent tumanidagi yangi shaharchalarning mavjud imkoniyatlari to'g'risida  
ma'lumot**

| Nº | Yangi shaharchalar nomi | Tuman markazidan uzoqligi, km. | Savdo va xizmat ko'rsatish shaxobchalarini | Paxta punktlari | Tegrimonlar | Maktab va bog'chalar | QVP | Dorixonalar | Bozorlar | To'xonalar | Transport qatnovi | Gaz ta'minoti | Suv ta'minoti |
|----|-------------------------|--------------------------------|--------------------------------------------|-----------------|-------------|----------------------|-----|-------------|----------|------------|-------------------|---------------|---------------|
| 1  | Shirin                  | 7                              | 4                                          | 1               | 3           | 2                    | 1   | 1           | 1        |            | +                 | +             | +             |
| 2  | Xayrxush                | 16                             | 2                                          | 1               | 2           | 2                    | 1   | 1           |          | 1          | +                 | +             | +             |
| 3  | Kosari                  | 4                              | 3                                          |                 | 2           | 2                    | 1   | 1           |          | 1          | +                 | +             | +             |

**Xayrxush** – Respublika Vazirlar Makamasining 2009-yil 13-martdagi № 68 sonli qarori asosida tashkil topgan shaharchalardan biri bo'lib, Vobkent tumanining Xayrxush mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan. Xayrxush shaharchasi viloyat markazi - Buxoro shahridan 18 km, tuman markazi – Vobkent shahridan 17 km uzoqlikda Buxoro – Samarqand avtomobil yo'li yaqinida shakllangan.

Shaharcha tuman markazi Vobkent shahridan nisbatan uzoqligi uning atrofdagi qishloqlarga nisbatan liderlik xususiyatini oshiradi va o'ziga xos markaz vazifasini bajarishini ta'minlaydi. Xususan, shaharcha atrofdagi qishloqlarda yashovchi aholi (Xurram, Tagalak, Taliqulo'q, Saripanja, Arabxona, Shofayoz va b.) uchun xizmat ko'rsatuvchi markaz vazifasini bajaradi. Shuningdek, shaharcha atrofidagi manzilgohlarni viloyat va tuman markazlariga bog'lovchi tranzit tugun vazifasini ham bajarib beradi. Uning bu funksiyasi XX asrni 60-yillarda S.Kovalev, E.Toshbekov va R.Valieva tomonlaridan tadqiq qilingan edi.

Bugungi kunda hududdagi shahar aholi manzilgohlari bir qator geoekologik muammolar xavf solmoqda. Jumladan, oqar suv tanqislashib borishi, chang to'zonli kunlar ko'payishi, yer osti suvlari sathining pasayishi, qishloq xo'jalik yerlarining sho'rланish darajasining oshib borishi va.b. So'ngi yillarda bunday muammolar yuzaga kelishi asosan, aholi soning keskin ko'payishi, transchegaraviy daryolardan oqilona foydalanimayotganligi va boshqa sabablarga bog'liq. Yuqorida muammolarni bartaraf etish yoki yumshatish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Suv muammosini hal etish orqali yuqorida geoekologik muammolarni bir qanchasini hal etish mumkin. Jumladan, tuman geografik jihatdan mo'tadil mintaqaning keskin kontinental qismida joylashgan bo'lib, ayniqsa yozgi "chilla" davrida suvga bo'lgan talab juda yuqori bo'ladi. Ushbu davrda oqar suvlari ham keskin kamayadi.

Bunday sharoitda har bir xonodon bahorgi va qishki yog'inlarini to'plovchi "mini suv ombor" lardan foydalanishi yaxshi yechim bo'lishi mumkin.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Buxoro vohasida joylashgan barcha hududlar, jumladan, Vobkent tumanida shahar aholi manzilgohlari shakllanishida suv eng asosiy o'rinda turgan va hududning kelajak istiqbolini belgilashda ham suv resurslari dolzarb bo'lib qoladi.

Vobkent tumanida shahar aholi manzilgohlarning rivojlanish istiqbollarini belgilash va hududdagi mavjud geoekologik muammolarni yumshatish bo'yicha xulosalar va takliflar:

1. Har bir xonadonda "mini suv ombor" lar loyihasini imkon qadar tezroq joriy etish.
2. Yer resurslari cheklanganligi bois qishloq joylarida qurilayotgan yangi xonadonlar hajmi va strukturasiga oid standartlar ishlab chiqish lozim.
3. Tuman markazi va hududdagi agro-shaharchalarda ko'p qavatli uylar qurish ko'lamin oshirish va bu orqali cheklangan yer va suv resusrlarini tejash maqsadga muvofiq.

**GEOGRAFIYA**

4. Cho'l zonasiga yondosh joylashgan aholi manzilgohlarini cho'l zonasidan tabiiy ihota orqali himoyalash va hududlarni cho'llashishdan saqlash lozim.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Axmedov E., "O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarda". – T.: 2002.
2. Kadirov M.A. "Shaharlар geografiyasи" o'quv qo'llanma Toshkent: 2019.
3. Mavlonov A.M. "Cho'l urbanizatsiyasi" monografiya. Buxoro: 2015.
4. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M. "Shaharlар geografiyasи" o'quv qo'llanma. Toshkent: 2018. 3-41 b.
5. Soliyev A.S, Nazarov M. "O'zbekiston qishloqlari" Toshkent "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2009.
6. Tojiyeva Z.N., "Aholi geografiyasи" darslik. Toshkent: 2019.
7. Toshov.X.R, Xolov.Yo.D. Jondor tuman aholi manzilgohlari va ularni tashkil etishning nazariy asoslari. Nam.Du ilmiy axborotnomasi 2023. 691-693 b.
8. Vafoyev A.Q. "Vobkent tumani shahar manzilgohlari geografiyasи" Magistrlik dissertatsiyasi. Buxoro: 2022.
9. O'zbekiston demografik yillik to'plami 2017-2021 yillar. T. 2021.
10. O'zbekiston demografik yillik to'plami 2018-2022 yillar. T. 2023.
11. [www.buxstat.uz](http://www.buxstat.uz)